


PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI TAHLILI



Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Qurbanova Nigina Boboxo'jayevna
+998936868389

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchilarni tarbiyalash jarayonida e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlar, pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari tahlili manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida keng yoritib o'tilgan. Tajriba avvalida innovation faoliyat bo'yicha talabalar bilimining o'zlashtirish ko'rsatkichlari jadvallar va aniq hisoblangan misollar bilan berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: respondent, pedagogik amaliyot, stajirovka, kadr, qobiliyat, muomala, sodiqlik, vatanparvarlik, fidoiylik, mafkura, e'tiqod, layoqat, salohiyat, muloqot.

Bo'lajak o'qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan amaliy ishlarni tashkil etishda respondent-talabalar o'rtasida savol-javob, davra suhbatlari hamda so'rovlar o'tkazish kabi metodlar asosida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida talabalarni innovation faoliyatga tayyorlash borasidagi quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- oly ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish haqida ma'lumot beruvchi manbalar bugungi kun ehtiyojlarini to'liq qondira olmasligi;
- bo'lajak o'qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o'quv, ilmiy, uslubiy manbalarning etarli emasligi;
- ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun etarli shart-sharoitlarning etishmasligi;
- ayrim talabalarning muloqot madaniyatini shakllantirishga bo'lgan munosabatlari, faollikkari quyi darajada ekanligi;

Bo'lajak o'qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonini takomillashtirish borasida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi – talabalarda innovation faoliyatga tayyorgarlik darajasining tajribadan avvalgi va keyingi holatini o'rganish hamda ularda kasbiy va shaxsiy sifatlarni to'laqonli rivojlanishiga erishishdir.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi vazifalarni bajarishni belgilab oldik:

1. Talabalar o'rtasida bir necha turdag'i anketa so'rovnomalari tashkil etish asosida ularda muloqot madaniyatini shakllanganlik holatini aniqlash.

2. Talabalarga muloqot madaniyati to‘g‘risida, uning mohiyati, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati, uni rivojlantirish yo‘llari to‘g‘risida nazariy ma’lumotlar berish.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonini takomillashtirishga yordam beruvchi pedagogik omillarni aniqlash.

4. Bo‘lajak o‘qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonini takomillashtirishni ta‘minlovchi manbalarni aniqlash.

5. Bo‘lajak o‘qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonini rivojlantirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi sabablarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash.

5. Bo‘lajak o‘qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunishlariga erishish.

6. Bo‘lajak o‘qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonining rivojlanishiga nisbatan mas’uliyatni uyg‘otish va bu boradagi amaliy faollikni yuzaga keltirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

7. Bo‘lajak o‘qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish muhim tarkibiy qismlari hisoblangan qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlarga intilish, rahbarlikka intilish, ijodiy faoliyat uchun yuqori baho olishga intilish, ijodiy faoliyatning shaxsiy ahamiyatini anglash, o‘z-o‘zini takomillashtirish istagini mavjudligi kabilarga asoslangan holda ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy faoliyatlarni tashkil etishlarini ta‘minlash.

Belgilangan vazifalarni hal etishda quyidagicha yo‘l tutildi:

- a) respondent-talabalar o‘rtasida anketa so‘rovlari tashkil etildi;
- b) respondent-talabalarning faoliyatini o‘rganish maqsadida bevosita pedagogik kuzatuvarlar tashkil etildi;
- v) respondentlar bilan suhbatlar tashkil qilish asosida olingan natijalarning haqqoniyligi aniqlandi;
- g) o‘rganish jarayonida aniqlangan natijalar umumlashtirildi, tahlil etildi va tegishli xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tajriba-sinov ishlariga ta‘lim muassasalaridan, jumladan, Buxoro davlat pedagogika institutidan jami 50 nafar talaba jalb etilib, ularning innovation faoliyat to‘g‘risidagi tushunchalarni bilishi, unga munosabati borasidagi bilimlari sinovdan o‘tkazildi. Talabalar tasodifiy tanlash tamoyiliga muvofiq tajriba va nazorat guruhlariga biriktirildilar. Tajriba guruhlarida innovation faoliyat to‘g‘risidagi tushunchalarni ifodalovchi so‘rovnoma va ular bilimini aniqlashga doir metodika asosida ish ko‘rildi. Nazorat guruhlarida esa garchi tadqiqot boshida tadqiq qilinayotgan masala haqida umumiylar ma’lumotlar berilgan bo‘lsa-da, tajriba guruhida chuqurroq va atroflicha bilimlar berildi.

Har ikkala guruh talabalarining savollarga bergan javoblari reyting nazorati talabiga muvofiq baholandi, ya’ni:

1. 100 - 86 ball – 5 baho;
2. 85 -71 ball – 4 baho;
3. 70 -55 ball – 3 baho1.

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan talabalarning tarkum savollar bo‘yicha bilimlari ko‘lami tajriba avvalida (1-jadval) quyidagicha bo‘ldi: 1-jadval.

Tajriba avvalida innovation faoliyat bo‘yicha talabalar bilimining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

| Guruhs | Talabalar soni | Bilimlarni o‘zlashtirish darajasi | | |
|---------|----------------|-----------------------------------|----------|------|
| | | yuqori | o‘rtacha | quyi |
| Tajriba | 24 | 10 | 9 | 5 |
| Nazorat | 26 | 14 | 8 | 4 |

Ushbu tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradiki, oliy ta’lim muassasalari talabalarida innovation faoliyatga tayyorlarligini takomillashtirish jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish uchun muayyan innovation texnologik tizim zarur. Ushbu innovation texnologik muhit, birinchi navbatda, innovation faoliyatni yangicha mazmun va talablardan kelib chiqqan holda tashkil qilish asosida vujudga keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonining 4.4-bandida belgilab qo‘yilgan “Ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institatlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” [3] ustuvor vazifalari belgilab qo‘yilgan. Mazkur vazifalarning samarali hal etilishi, o‘z navbatida, innovation faoliyatni tashkil etish va ta’lim-tarbiya jarayonida yangi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amalda joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarни muloqot madaniyatini shakllantirish tayyorlashda ta’lim texnologiyalari samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi interfaol usullardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. “6x6x6”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Qarorlar shajarasi”, “Tarmoqlar dinamikasi”, “Tarozi”, “Zinama-zina”, “Burchaklar”, “Elpig‘ich”, “Sinkveyn”, “Munozara”, “Kichik guruhlarda ishslash” kabi o‘nlab interfaol usullar shular jumlasidandir.

Tadqiqot natijasida nazorat guruhi ma’lumotlari tajriba guruhi ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil yuqorida ta’kidlanganidek, o‘z-o‘zini baholash, reyting, testlar, kuzatish, suhbat, so‘rovnomalar, intervyyu (so‘rov) kabi metodlar

1 Izoh: O‘rtacha qiymat chiqarish uchun biz ularni shartli ravishda “yuqori”, “o‘rtacha”, “quyi” darajalarga ajratdik.

yordamida aniqlandi. Qiyosiy tahlil nazorat guruhi natijalari aniq maqsadga qaratilgan faoliyat natijalari tajriba-sinov guruhlarnikiga qaraganda ancha past bo‘lganligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, tajriba oxirida ijobjiy ko‘rsatkichlar bergenligining guvohi bo‘ldik. 48% talaba yuqori natija berdi, nazorat guruhida esa 34%ni ko‘rsatdi. Demak, innovasion faoliyat tizimi tajribada samarali bo‘lib chiqqanligini ko‘rsatadi: agar tajriba boshida innovasion faoliyatga tayyorlash jarayoni rivojlanganligi yuqori daraja ko‘rsatkich bergen talabalar 23% bo‘lgan bo‘lsa, tajriba-sinov so‘ngida 37%ni tashkil etdi. Nazorat guruhidagi talabalarda innovasion faoliyatga tayyorgarlik darajasi o‘zgarishi juda kam bo‘lib qolgan. Chunki mazkur guruhlarda pedagogik ta’sir aniq maqsad emas, umumiy talablar asosida olib borilgan. Nazorat sinfidagi talabalarda keljakka intilish, irodaviylik, jo‘shqinlik, jasorat, o‘ziga nisbatan ishonch, ijodkorlik, mustaqillilik, izlanuvchanlik, yangilikka intilish kabi sifatlar etishmagan.

Tajriba guruhlarida esa talabalar muloqot madaniyatini shakllantirish natijasida o‘z oldilariga yangi hayotiy maqsadlar qo‘ya olib, o‘zlarida mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fidoyilik, bilimlilik, kasbni sevish, kasbni ardoqlash kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalay oldilar, shuningdek, halollik, to‘g‘riso‘zlik, epchillik, insonparvarlik, vatanparvarlik, fikrlar xilma-xilligi borasida yuqori darajaga erishib, o‘z-o‘zini boshqarish malakasini ham egallab olganliklari aniqlandi. Umuman olganda, innovasion pedagogik faoliyatga oid bilimlar shaxs ongini shakllantira borib, talabalarda o‘z-o‘zini boshqara olish malakasi ham rivojlanib, ular egallab olgan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliyotda foydalanish imkonini berdi.

Ushbu xulosalarning ilmiy tasdiqlanganligini 2-jadvaldagи eksperiment natijalari ham aniq tasdiqlaydi:

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalari talabalarida muloqot madaniyatini shakllantirish pedagogik faoliyatga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish tajriba-sinov yakunlari samarali yakuniga etdi. Tajriba guruhlari ishtiokchilarining innovasion pedagogik faoliyatga oid tayyorgarliklari darajasi yuqori bo‘lib, biz olib borgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tajriba yakunida bo‘lajak o‘qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonini takomillashtirishni davr talablari asosida ta’minalash uchun o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari tajriba-sinov oxirida (3-jadval) quyidagicha ko‘rinishni oldi.

Ushbu ma’lumotlarni matematik - statistik tahlil qilish uchun Styudent-Fisher metodi tanlandi.


2-jadval
O'tkazilgan tajriba-sinov natijalari

| Talabalarning o'zlashtirish darajalari | Tajriba guruhida $m=24X_i$ | | Nazorat guruhida $n=26 Y_i$ | |
|---|-------------------------------|--------------------|--------------------------------|--------------------|
| | Tajriba boshida | Tajriba oxirida | Tajriba boshida | Tajriba oxirida |
| Yuqori | 10 (30%) | 14 (37 %) | 14 (25%) | 17 (26%) |
| O'rta | 9 (34%) | 14 (44,3%) | 8 (34,4%) | 11 (38%) |
| Quyi | 5 (36%) | 8 (18,7%) | 4 (40,6%) | 7 (36%) |

Tajriba va nazorat sinfidagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2 – tanlanmalar deb olsak, quyidagi variasion qatorga ega bo'lamiz.

1 – tanlanma X_i : yuqori; o'rta; quyi;
 (tajriba guruhi) t_i : 104; 125; 53; $t=282$
 2 – tanlanma Y_i : yuqori; o'rta; quyi;
 (nazorat guruhi) n_i : 77; 112; 107.
 $n=296$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz (1-rasm):



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni muloqot madaniyatini shakllanganlik darajasi diagrammasi

Ko'rsatilgan grafiklardan anglanadiki, tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda $M_T=5$ va $M_H=3$, ya'ni ular orasidagi farq etarli darajada

bo‘lib, $M_T > M_H$ ekan. Bu esa, o‘z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar ham $X > Y$ shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko‘rsatadi. Ularni quyidagi formulalar asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{282} (104 \cdot 5 + 125 \cdot 4 + 53 \cdot 3) = \frac{1}{282} (520 + 500 + 159) = \frac{1179}{282} = 4,2$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i y_i = \frac{1}{296} (77 \cdot 5 + 112 \cdot 4 + 107 \cdot 3) = \frac{1}{296} (385 + 448 + 321) = \frac{1154}{296} = 3,9$$

Demak, tajribaguruuhidao‘rtachao‘zlashtirishnazoratsinfidagidankattaekan: $\bar{X} > \bar{Y}$
Endiharikkiguruuhuchuntarqoqlikkoeffisientlarinihisoblaymiz.

Shumaqsaddadastlabtanlanmadispersiyalarnihiisoblaymiz:

$$D_m = \sum_{i=1}^{n=3} n_i \frac{(x_i - \bar{x})^2}{n-1} = \frac{104(5-4,2)^2 + 125(4-4,2)^2 + 53(3-4,2)^2}{282} = \frac{104 \cdot 0,64 + 125 \cdot 0,04 + 53 \cdot 1,44}{282} = \\ = \frac{66,56 + 5 + 76,32}{282} = \frac{147,88}{282} \approx 0,52$$

$$D_H = \sum_{i=1}^{n=3} n_i \frac{(y_i - \bar{y})^2}{n-1} = \frac{77(5-3,9)^2 + 112(4-3,9)^2 + 107(3-3,9)^2}{296} = \frac{77 \cdot 1,21 + 112 \cdot 0,01 + 107 \cdot 0,81}{296} = \\ = \frac{93,17 + 1,12 + 86,67}{296} = \frac{180,96}{296} \approx 0,61$$

Bunatijalardano‘rtachakovadratikchetlanishlarnitopamiz:

$$\tau_m = \sqrt{0,52} \approx 0,7 \quad \tau_H = \sqrt{0,61} \approx 0,8$$

Bularasosidaharikkisinfuchunvariasiyako‘rsatkichlarinihiisoblaymiz:

$$\delta_m = \frac{\tau_m}{\bar{X}} = \frac{0,7}{4,2} \approx 0,17 \quad \delta_H = \frac{\tau_H}{\bar{Y}} = \frac{0,8}{3,9} \approx 0,21$$

Agar statistik alomatning qiymatdorlik darajasini $\alpha = 0,05$ deb olsak, u holda Laplas funksiyasi jadvaldan statistika uchun kritik nuqta t_{kr} ni

$$\Phi(t_{kp}) = \frac{1-2\alpha}{2} = \frac{1-2 \cdot 0,05}{2} = \frac{0,9}{2} = 0,45$$

tenglikdan aniqlaymiz: $t_{kr} = 1,67$. Bundan baholashning ishonchli chetlanishlarini topsak:

$$\Delta_m = t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,52}{\sqrt{282}} = 1,67 \cdot \frac{0,52}{16,8} \approx 1,67 \cdot 0,03 \approx 0,05 \text{ ga teng,}$$

nazorat gruppasida esa:

$$\Delta_k = t_\gamma \cdot \frac{D_k}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,61}{\sqrt{296}} = 1,67 \cdot \frac{0,61}{17,2} = 1,67 \cdot 0,03 \approx 0,05 \text{ ga teng.}$$

Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$\bar{Y} - t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{Y} + t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$4,2 - 0,05 \leq a_x \leq 4,2 + 0,05 \quad 4,15 \leq a_x \leq 4,25$$


nazorat guruhi uchun ishonchli interval:



$$\bar{Y} - t_{\gamma} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_{\gamma} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$3,9 - 0,07 \leq a_y \leq 3,9 + 0,07 \quad 3,83 \leq a_y \leq 3,97$$

Buni geometrik tasvirlasak:



Demak, $x=0,05$ qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba guruhida o‘rtacha baho nazorat sinfidagi o‘rtacha bahodan yuqori bo‘lar ekan.

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlarining natijalariga ko‘ra, innovation faoliyatning rivojlanganlik darajasi haqqoniyligi kelib chiqdi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lumki, $\bar{X} = 4,2$; $\bar{Y} = 3,9$; $\Delta_m = 0,05$; $\Delta_H = 0,05$ ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

$$K_{yc\delta} = \frac{\bar{X} - \Delta_m}{\bar{Y} + \Delta_H} = \frac{4,2 - 0,05}{3,9 + 0,05} = \frac{4,15}{3,95} = 1,05 > 1;$$

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_H) = (4,2 - 0,05) - (3,9 - 0,05) = 4,15 - 3,85 = 0,3 > 0;$$

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, tajriba guruhi natijalari nazorat guruhidagilardan yuqori ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
2. Angelovski K. Uchitelya i innovasi: Kn. dlya uchitelya / K.Angelovski: per. s maked. – M.: Prosveshenie, 1991. – 159 s.
3. Alimov A.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida innovation faoliyatga tayyorlash. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss... – T., 2018. – 142 b.
4. Balashov M.M. Problemy gotovnosti molodykh uchiteley k innovacionnym prosessam v obrazovanii / M.M. Balashov, M.I. Lukyanova // Problemy adaptasii uchitelya k professionalnoy deyatelnosti. –Ulyanovsk, 1998. – S. 5-14.

5. Barkamol avlod – O‘zbekiston tarakqiyotining poydevori. – T.: «Sharq» nashriyotmatbaa konsernining Bosh tahririysi, 1997. – 64 b.
6. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahlidinov. to‘ldirilgan 2-nashri. – T.: «O‘zbekiston milliy enseklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 248 b.
7. Barotov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari: Maktab o‘qituvchilari va pedagogika institutlari o‘quvchilari uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 56 b.
8. Baubekova G.D. XIX asr boshlarida O‘rta Osiyo ma’rifatparvarlarining ta’limiy-axloqiy qarashlari: Ped.fanlar dokt. diss. –T.:2002. - 236 b.
9. Begimkulov U.Sh. Oliy pedagogik ta’lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori dis. – Toshkent: TDPU, 2007. – 250 b.
10. Bespalko V.P. Slagaemые pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989. – 256 s.